



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

2022 y. "19" oktabr № 37

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Davlat statistika qo'mitasi **qaror qiladi**:

1. Dehqon va tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2012-yil 29-martdagi "Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini hisobga olish metodikasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi 5-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2020-yil 27-maydagi "Dehqon xo'jaliklari tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 14-son qarori.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov